

TURK TILIDA ZONIM VA FITONIMLAR ORQALI INSON QIYOFASIGA MUROJAATNING O'ZIGA XOSLIKLARI

Salimova Zebo Rustam qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Turkiy tillar" kafedrasida o'qituvchisi

Tel: +998 99 811-26-87

E-mail: zebosalimova1990@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqola inson qiyofasi va xarakter xususiyatlarini berishda hayvon yoki o'simliklar nomlaridan foydalanish masalalariga bag'ishlanadi. Zoonim yoki fitonimlar orqali inson qiyofasini ifodalashda til imkoniyatlarining kengligi ko'rib chiqiladi. Turk tilida zoonimlar va ularning o'zbek tilidagi muqobili berilgan. Hayvon obrazlari orqali inson qiyofasini aks ettirish, ularning xarakterlarini ochib berishda tilning so'z boyligiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Til, inson qiyofasi, xarakter, zoonim, fitonim, obraz, portret, ijobiy, salbiy, tashqi ko'rinish, o'xshatish, obraz, muqobil, ekvivalent, til doirasi, ma'no ko'chishi.

АННОТАЦИЯ

Эта научная статья посвящена использованию названий животных или растений для придания человеческой внешности и черт характера. Исследуется способность языка выражать человеческую внешность через зооним или фитоним.

Ключевые слова: Личность, характер, зооним, фитоним, образ, портрет, позитив, негатив, внешность.

ABSTRACT

This scientific article deals with the use of animal or plant names in giving human appearance and character traits. The ability of language to express human appearance through zoonim or phytonim is examined.

Keywords: Personality, character, zoonim, phytonym, image, portrait, positive, negative, appearance.

KIRISH

Olamda hamma narsa bir-biriga bog'liq yaratilganidek, Insoniyat ham tabiat bilan chambarchas yashaydi. Kishining xatti-harakatlari, xarakteri va tashqi ko'rinishini hayvon yoki o'simlik nomlari bilan atash yoki o'xshatish buning yaqqol isbotidir. Tarixdan hozirgi kunga qadar yomon xulqli odamlar yovvoyi yirtqich

hayvonlarga, yaxshi fazilatli insonlar uy hayvonlariga, sezgir, harakatchanlar ba'zi qushlarga o'xshatilishi an'anaga aylanib qolgan.

Hayvonot dunyosi haqiqatining nomlari bo'lgan zoonimlar ko'pgina tillarning leksik tarkibidagi eng qadimgi semantik guruhlardan birini tashkil qiladi. Ma'joriy ma'nolarning rivojlanishi tufayli zooleksemalar insonning fazilatlari va harakatlarini tavsiflash uchun faol ishlatiladi.

Fitonimik va zoonimik lug'at orqali shaxsni obrazli nominatsiya qilish muammosi tilshunoslikda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning lingvistik qiymatining sababi insonni o'zini o'rab turgan tirik tabiat sharoitida o'zini anglashning uzluksiz jarayonida yotadi. Ushbu jarayon zoosfera va fitosferani antropotsentrik talqin qilishning yangi shakllari bilan doimiy ravishda ta'minlanib, keng va chuqurlikda tarqalmoqda. Bir tomondan, u so'z boyligining barcha yangi qatlamlarini qamrab oladi, boshqa tomondan, turli darajadagi til darajalariga kirib boradi. Bu darajalarning eng qudratlisi - matn darajasi ham chetda qolmaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fitonimik nominatsiyalar sohasida motivatsiyasiz o'xshashliklar sezilarli bo'lib, ular fito-ob'ektning tanlangan xususiyati odamning har qanday sifatini nomlash uchun shartli ekanligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi (masalan, "armut gibi" (nok) –gap tushunmaydigan anqov; "Kabak kafa"–qovoq kalla.

Ayolning turk tilidagi "jinsiy qiyofasi" zooleksika orqali eng yorqin aks ettirilgan. Shu bilan birga, ayol zoonimlar orqali fitoleksikaga qaraganda ancha batafsil tavsiflanganligi diqqatga sazovordir. Shunday qilib, zoonimlar orasida metafora bo'lgan so'zlar keng tarqalgan, ularning prototiplari jinsiy tuzilishning fiziologik xususiyatlari. Ayollar nominatsiyasida sevgi va erotizm, shuningdek, hayvonlar bilan ifodalanadi. Jinsiy jihatdan jozibali ayol "oqqush", "oqqush", "oqqush", kanareyka "kanareyka" jargoni, "jozibali qiz" zoonimlariga mos keladi; tovuq, shuningdek tovuq go'shti, bahor tovuqi "tovuq, jo'ja", "jozibali qiz", bedana "oddiy bedana" jargoni, "jozibali ayol, qiz", kaptar "kaptar" jargoni, "kaptar", "jozibali qiz yoki ayol".

Ayolning jozibali qiyofasini "yılan gibi" metaforasi bilan ham berish mumkin. Turk xalq aforizmlarida "Her evin bir yılanı olsun" o'xshatmasi qo'llaniladi. Ayolning jilvakorligi, sehlash xususiyati, aqlli va tadbirliligi, shuningdek, as qotuvchi zahri bilan ilonga o'xshatilishi mantiqan to'g'ridir.

Fitonimlar vositasida ayol obrazini ifodalash uchun esa "selvi boylu", "gül gibi", "çiçek gibi", "reyhan kokulu", "fidan gibi", "kiraz dudaklı", "gonca misal" kabi

o'xshatishlardan foydalanish mumkin. Salbiy ma'nolarda ishlatiladigan fitonimlardan "diken dilli", (tili zahar) "sarmaşık gibi", (yopishqoq, tinch qo'ymaydigan) kabilar misol bo'ladi. Turk tilida "kabak çiçeği gibi" fitonimi rang-baranglikni xush ko'radigan, quvnoq ayollarga nisbatan keng qo'llaniladi.

Muayyan madaniyatga tegishli bo'lish ma'lum bir jamiyatda shaxsni sotsializatsiya jarayonida takrorlanadigan bilimlarning asosiy stereotipik yadrosining mavjudligi bilan belgilanadi, shuning uchun stereotiplar madaniyatdagi nomuvofiq nomlar hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, stereotip turli xil lisoniy shakllarda ifodalanishi mumkin – bular so'zning leksik-semantik variantlari, boshqa so'zlar bilan o'zaro bog'liqligi, ramz sifatida xizmat qilishi va boshqalar.

Zoosfera va fitosferaning turli vakillarining repertuariga kelsak, shuni ta'kidlash kerakki, har bir daraja odamning fazilatlarini va uning shaxsiyatini tushunishga qaratilgan, ularning metafora talqinida so'zsiz selektivlik bilan ajralib turadi. Xususan, xo'roz, baliq, cho'chqa, o'rdak, ayiq, ot, eshak, buqa, kurka, g'oz, echki, qo'y, qurbaqa, qurbaqa kabi hayvonlar matn sathida kamdan-kam uchraydi va yorqin aksiologik rangga ega emas va yorqin kontseptual tarkib bilan ajralib turmaydi. Tahlil ko'rsatilgandek, odam xarakterining eng to'liq rasmini it, mushuk, sichqon, tovuq va boshqa til tizimlarining barcha darajalarida uchraydigan hayvonlar namoyish etishi mumkin. Har ikki tilning izohli lug'ati vositasida zoonimlar ifodalagan qiyofalar orqali o'zbek va turk tillari orasidagi o'xshash va farqli tomonlar ham ko'rib chiqiladi. Zoonimlar tillarning leksik fondi shakllangan etnik-madaniy sharoitlarning bevosita aksidir.

Inson qiyofasini ifodalashda uning xarakter-xususiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Xarakter-xususiyat sifatleri insonning turli xil belgi xususiyatlarini, ya'ni uning axloqiy, intellektual, ijtimoiy belgilarini, shaxsiy xarakterlarini, narsa va mavjudotning xarakter-xususiyatlarini ifodalashda ko'p qo'llanadigan so'zlardir. Bunday sifatlar turk tilida 3 xil tavsif qilish mumkin, ijobiy va salbiy yoki neytral holatda bo'lishi mumkin:

1) Turk tilida insonning xarakter-xususiyatiga xos ijobiy sifatlar: agah (bilimli, har narsadan xabardor, xushyor), açık elli (saxiy), açık fikirli (tili-yu dili bir inson), açık kalpli (toza qalbli), açık sözlü (oqni oq, qorani qora deguvchi, rostgo'y), açıkalin (to'g'rilikdan voz kechmaydigan kishi), açıkkel (saxiy inson), açıker (to'g'ri so'z), ahi (saxiy, qo'li ochiq), ahlaklı (xushxulq kishi), babacan (ishonchni oqlaydigan, toza qalbli, shuningdek, kelishgan sof kishi), adam gibi (tarbiyali, aqlli, quloq soladigan), adam sarrafı (insonlarning ichidagini ko'zidan biladigan, sezgir odam), insan sarrafı

(sezgir), affan (irodali, yomon ishlardan qochguvchi inson), afif (iffatli erkak), afife (iffatli ayol), namuslu (oriyatli), temiz (sof), dürüst (to'g'ri so'z), afşar (tez chora ko'radigan, xushyor, moslashuvchan kishilar), çevik (xushyor), atilgan (uddaburon), uyumlu (bo'ysinuvchi) va boshqalar.

Ijobiy ma'nodagi stereotiplar sifatida "kurt gibi" zoonimini misol qilishimiz mumkin. O'z ishini yaxshi bilgan, kirishuvchan va mehribon do'st bo'lgan kishilarga nisbatan ishlatiluvchi bu zoomorfema o'zbek tilida salbiy ma'noda "ochko'z" kishini tasvirlash uchun qo'llaniladi.

2) Kishilarga xos salbiy xarakter- xususiyatni bildiruvchi sifatlar turk tilida quyidagicha tavsiflanadi:

afal (tarqoq fikrli, besaranjom), açığöz (manfaatparast), ahmak (axmoq), cingöz (ayyor), yalancı (yolg'onchi), kaba (qo'pol), hasetçi (hasadgo'y), inatçı (qaysar), kurnaz (ayyor), dedikoducu (g'iybatchi), sinsi (g'arazgo'y), hain (xoin), burnu havada (burni osmonda), bencil (xudbin, egoist), kiskanc (qizg'anchiq), kinder (ginachi), kavgaci (janjal chiqaruvchi), sahtekar (ikkiyuzlamachi), ikkiyüzlü (ikkiyuzlamachi), cimri (pastkash), duzenbaz (xiylakor), dolandırıcı (aldoqchi), hırsız (o'g'ri), katil (qotil), uyanık (ayyor), vurdum duymaz (tepsa tebranmas kimsa), adam sendeci (kibr-havoga berilgan), acımasız (marhamatsiz, toshbag'ir), açık ağızlı (axmoq), zalim (zolim), alçak (nokas), (kibirli) takabbur, (inatçı) o'jar, (bencil) xudbin va boshqalar. Kishilarga xos salbiy va ijobiy xususiyatlarini ularning gap-so'zini, o'y-niyatini, yoki tana a'zolarini sifatlash orqali ham bildiriladi.

Salbiy stereotiplarni ifodalash uchun "manda gibi" (to'nkaday, ishyoqmas), "tilki gibi" (ayyor, laganbardor), "maymun gibi" (masxaraboz), "ayi gibi" (ishyoqmas, uyquchi), "horoz kafali" (tovuq miya) kabi zoonimlardan foydalaniladi.

3) Xarakter-xususiyat sifatlarining yana shundaylari borki, ularda ijobiylik va salbiylik yaqqol ko'rinib turmaydi. Matndan ularning ma'nosini anglab olish mumkin. Masalan, salak, lakayit, inatçı, yaramaz (dovdir, loqayd, sho'x, o'jar, shaddod) va boshqalar. Loqayd odam birikmasida loqayd sifati salbiy munosabat ifodasi uchun qo'llangan bo'lsa, "Uni noo'rin kishilarga ham loqayd turib berdi" misolida esa ijobiy semasini namoyon qilgan.

Serinkan- sovuqqon, ya'ni dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydigan kishi ma'nosida kelsa, "Bu g'iybatchilarga nisbatan sovuqqon edi" gapida ijobiy ma'noda qo'llangan. Ko'z borasida ham zoonimlar ko'p qo'llaniladi. "baykuş gibi", "şahin gözlü", "ceylan gözlü", "eşek gözlü" kabi zoonimlar orqali o'tkir qarashli, keskin boquvchi, chiroyli va katta-katta ko'zlar ifodalansa, "karga burunlu" obrazi yordamida qirg'iy burunli kishilar ta'riflanadi.

Inson xarakterini ifodalovchi soʻzlar ham har bir til millatining dunyoqarashi, mentalitetidan kelib chiqqan holda qoʻllaniladi. Masalan, oʻzbek tilida saxiy maʼnosini beruvchi “qoʻli ochiq” iborasini turk tilida cömert yoki “açık gönüllü” yoki kamtar maʼnosidagi “alçak gönüllü” iborasi bilan ifodalash mumkin. Shu oʻrinda alçak soʻzini oʻzi ishlatilganda esa pastkash maʼnosini berishi eʼtiborga loyiq. Xushchaqchaq odamni taʼriflar ekanmiz turk tilida “güler yüzlü” ifodasini qoʻllashimiz mumkin. “Tirnoq ostidan kir qidiradigan” odam maʼnosida “üzümün çöpü, armudun sapı” diyen insan iborasi keladi. Turk tilida ham inson qiyofasi va xarakterini bildiruvchi soʻzlarni ijobiy va salbiy maʼnoda keluvchi turlariga ajratadigan boʻlsak:

Ijobiy xususiyatlarni ifodalovchi soʻzlar: İyi, mert, cömert, dürüst, saf, temiz, sessiz, aydın, üstün zekalı, çalışkan, ciddi, samimi, güzel, ahlaklı, mihriban, şefkatlı, temiz, titiz, zeki, terbiyeli, dikkatli, sorumlu, sabirli va boshqalar.

Salbiy xususiyatlarni bildirgan soʻzlar: Kötü, korkak, cimri, yalancı, kurnaz, geveze, ahmak, aptal, tembel, inatçı, geri zekalı, deli, dedikoducu va boshqalar.

Turk tilida inson qiyofasini zoonimlar vositasida ifodalash esa turk xalqining dunyoqarashiga, mentalitetiga mos ravishda belgilangan. Har ikki tilda ham inson xarakterini ifodalovchi zoonimlar juda ham koʻp. Quyida biz baʼzi misollarni keltirib oʻtamiz. Oʻzbek tilida chiroyli qora koʻzlarni tasvirlash uchun ohu, quralay koʻzlariga oʻxshatishdan foydalanilsa, turk tilida katta va chiroyli koʻzlarni ifodalashda “eşek gözlü” birikmasi qoʻllaniladi. Oʻzbek tilida jayron koʻz, ohu koʻz, tuya bolasining tim qora koʻzlariga oʻxshasa quralay koʻz birikmalari orqali beriladi.

“Eşek gibi” ifodasi turk tilida aqlsiz, qoʻpol, oʻylamay ish qiladigan kabi maʼnolarda keladi. Tuygʻusiz, hissiz odamga nisbatan esa “eşek derisi gibi” birikmasi qoʻllaniladi. Oʻzbek tilida esa bu birikmalar juda mehnat qilib yuzaga chiqmagan odam yoki oʻta qaysar maʼnolarida keladi. Shu bilan birga, koʻzlari katta-katta insonga nisbatan “eşek gözlü” ifodasi ishlatiladi.

Qarashlari oʻtkir yoki uzoqni yaxshi koʻra oladigan, sezgir insonlarga nisbatan oʻzbek tilida “burgut koʻz”, “lochin koʻz” oʻxshatmalari bilan ifodalansa, turk tilida ham “şahin bakışlı” (lochin koʻz) birikmasi ishlatiladi.

Qirra burunli kishilarni tilda ifodalash uchun “karga burun” birikmasidan foydalaniladi. Aslida qargʻaning burni biroz egri boʻlgani uchun ham shunga qiyoslangan.

Juda ozgʻin va qorachadan kelgan kishilar uchun ham “karga gibi” ifodasi beriladi. Shuningdek, xipcha bel va nozik qomatli ayollarga nisbatan “ceylan gibi” deyiladi, yaʼni ohuga oʻxshatiladi.

Ceylan gibi ifodasi orqali qaddi-qomati chiroyli ayollar ifodalanadi.

Aristotel o'zining "Poetika" asarida ushbu fikrlarni beradi: "Inson maylining nimadadir namoyon bo'lishi, kimning nimanidir afzal deb hisoblagani yoki nimanidir yoqtirmagani xarakterdir. Shaxs agar o'zining gaplari va ishlarida qandaydir maqsadga amal qilsa, xarakterga ega bo'ladi. Agar shaxs yaxshi maqsadlarni ko'zlasa, xakteri ham yaxshi bo'ladi. Bu har bir odamda mavjud bo'lishi mumkin".¹

Salbiy xarakterlardan biri bo'lgan qaysar ta'rifini berishda har ikkala tilda ham biroz o'xshashlik mavjud. O'zbek tilida "qaysar eshshak" ta'rif qo'llansa, turk tilida undan ham qaysarroq bo'lgan xachir hayvoniga o'xshatish bilan aks ettiradi. Ya'ni "Katır gibi" birikmasi yordamida ifodalanadi.

Ayyor, laganbardor kishilarga nisbatan har ikkala tilda ham bir xil o'xshatish "tulki", "tilki gibi" tarzida beriladi.

Ish ko'zini biladigan, kirishuvchan ma'nosida "kurt gibi" birikmasi qo'llaniladi. O'zbek tilida esa kurt ya'ni bo'ri orqali bunday xarakter ifodalanmaydi, o'zbek tilida "bo'riday", "och bo'riday" o'xshatmasi juda ochiqqan kishini ta'riflash uchun ishlatiladi. Bu o'rinda har ikki til o'rtasida ba'zi farqli jihatlar ko'rinadi.

O'zbek tilida kaltafahm, befarosat odamni "tovuq miya" ga o'xshatilsa, "tavuk gibi" birikmasi turk tilida barvaqt uxlab qoluvchi kishilarga nisbatan ishlatiladi. "Horoz gibi" esa kalandimog', o'z haqqini bilgan, har ishda bosh bo'lgan kishi ma'nosida qo'llaniladi. O'zbek tilida, ayniqsa xalq tilida kekkaygan, qo'lidan bir ish kelmasa-da o'zini osmonda deb biladigan yosh yigitlar uchun "jo'jaxo'roz" o'xshatmasi qo'llaniladi.

Laganbardor, sertakalluf, kattalarga tilyoqlamalik qilib yaltoqlanadigan odamga nisbatan "köpek gibi" birikmasi ishlatiladi.

Akrep so'zi turk tilida chayon ma'nosini beradi, lekin insonlarga nisbatan "ciyan gibi" ifodasi ishlatiladi va "tili zahar" kishini ta'riflash uchun qo'llaniladi.

Turk tilida shunday iboralar borki, ular insonga xos xarakterlarni badiiy tarzda va ta'sirchan ifodalash imkonini beradi. Masalan "mürekkep yalamış" (siyoh yalagan) iborasi ilm-fanga berilgan, umrini ilm olishga sarflaydigan kishilarni bildirsa, "yüzünü köpek yalamış" iborasi esa uyatsiz, orsiz kishi ma'nosini ifodalab keladi.

Turk tilida bir insonning og'ir vazmin, kamgapligi ko'pincha fikrni qisqa, lo'nda ifodalash vositlaridan biri bo'lgan iboralar orqali beriladi: *ağzına bakla almak* (og'ziga loviya olmoq, ya'ni og'ziga talqon solib olmoq); *ağzını bıçak açmamak* ("og'zini pichoq bilan ham ochib bo'lmsydi), *ağzına çakıl taşı almak* ("og'ziga

¹ Aristotel. Poetika. Toshkent. 1975. 82-b.

shag'al solib olmoq") va b. Ayni shu iboralarga antonimlarni tashkil etuvchi iboralar ham talaygina. Masalan: *ag'zinda bakla ıslanmamak* (og'zida loviya namlanmaslik), *çenesi düşük* (chakagi tushgan) kabi. *Onlar, Sörlerden ziyade benden çekinirlerdi. Niçin mi diyeceksiniz? Çünkü gevezeydim, sakallı dayının dedig'i gibi, ag'zında bakla ıslanmazdı.* (R.N.G, 29). Tarjimasi: *Ular murabbiyalardan ham ko'proq mendan qo'rqishardi. Nega deysizmi? Chunki sergap edim, soqolli amaki aytganday, ichimda gap turmas edi.* (M.I.29-b). Tarjimon turkcha gapdagi "Ag'zında bakla ıslanmamak" iborasini "ichida gap turmaslik" ma'nosidagi muqobilini tanlab tog'ri ish tutgan va ikala ibora bir-biriga to'la mos kelgan.

Rashod Nuri Guntekinning "Choliqushi" romanidan keltirilgan misollarda ham kishi xarakterini iboralar orqali ifodalash muallif va tarjimon Mirzakalon Ismoiliy tomonidan mohirona amalga oshirilgan va bu asarning badiiy qiymatini yanada oshirgan:

Shuningdek, *Besime Teyzemin kızı Necmiye, annesinin dizi dibinden ayrılmayan sessiz ve biraz da hastalıklı bir çocuktı* (R.N.G., 25) gapi o'zbekchaga *Basima xolamning qizi Najmiya onasining etagidan ajralmaydigan kamgap, hastahol qizaloq edi* (M.I., 25) deya o'girilgan. Gapdagi *annesinin dizi dibinden ayrılmayan çocuk* (onasining tizzasi tagidan ajralmaydiagan bola, ya'ni uydan hatlab ko'chaga yolg'iz o'zi chiqmaydigan, onasiga bog'lanib qolgan bola) iborasi ichiga kirib qolgan so'zlar ibora tarkibini kengaytirgan, ya'ni gap tarkibidagi «sessiz ve biraz da hastalıklı bir...» erkin birikmasi iboraning komponenti hisoblanmaydi. Bu jumladagi *annesinin dizi dibinden ayrılmayan çocuk* iborasi 'onasining ketidan qolmaslik', ya'ni 'uydan hatlab ko'chaga yolg'iz o'zi chiqmaydigan', 'onasiga bog'lanib qolgan bola' ma'nosida kelgan.

Yana bir o'rinda:

Yoki, *Hüseyin, delişmen bir adamdı. Beni çabuçak sevmiştı. Ben de umulmaz ve affedilmez bir vefasızlıkla onun sevgisine mukabele edivermiştim.* (R.N.G., 9) jumlasida ifoda etilgan fikr, aniqrog'i, *sevgisine mukabele etmek* birikmasi o'zbekcha tarjimada ibora vositasida (oyoq osti qilmoq) yoritilgan va bu tarjimaning badiiy saviyasini yanada oshirgan: *Husayn devonaroq odam edi. Meni jonidan ortiq yaxshi ko'rardi. Men esam uning sevgisini oyoq osti qilib, tuzatib bo'lmaydigan vafosizlik bilan xorlardim* (M.I., 8).

Mazkur misolda "delismen"-devonaroq, "vefasiz"-vafosiz kabi xarakter xususiyatlari tarjimada o'z ekvivalenti bilan berilganining guvohi bo'lamiz.

Inson portretini ifodalashda ham bir qancha turkcha zoonimlarni ko'rish mumkin. Kuchli, navqiron, yelkador, vazndor erkaklar uchun "tay gibi" birikmasi

qo'llanilsa, bu ko'rinishdagi ayollarni ta'riflash uchun "at gibi" o'xshatishidan foydalaniladi.

Qo'pol, juda ham semiz, mehnatga tobi yo'q tanbal kishilarni tasvirlash uchun o'zbek tilida "to'nkaday", "cho'chqaday", "buqaday" so'zlari qo'llanilsa, turk tilida "manda gibi" birikmasi ishlatiladi. Manda yovvoyi buqa ma'nosini beradi.

Juda sabrli, so'zsiz har yuklatilgan vazifani bajaradigan insonga nisbatan "karınca sabırlı" beriladi. O'zbek tilida ham bu o'xshatma mehnatkash odamga ko'ra ishlatiladi. Ma'lum bir ma'noda har ikkala tilda ham bir-biriga yaqin ma'nolarda qo'llaniladi.

Taniqli turk yozuvchisi Umar Sayfiddinning "Horoz" hikoyasida ushbu parchaga e'tibor qaratsak:

"Ah bu tavuklar! Dünyada bunlar kadar sevimli, bunlar kadar kendi hallerinde, bunlar kadar saf, bunlar kadar masum bir mahluk var midir. Hayatları bütün bir vezife bütün bir fedakarlık destanıdır. Bizi beslemek için muntazam yumurtlarlar. Cıvcıv çıkarmak için haftalarca karanlıkta aç, susuz, uykusuz, güneşsiz, eğlencesiz, yumurtaların üstünde yatarlar. Kendi hararetiyle yavrularını canlandırırlar. Sonra onları büyütünceye kadar yerlerde buldukları tanelerden – obur oldukları halde nefislerini mahrum ederler. Onları korumak için en müthiş hücumlara karşı kanat açarlar. Kendilerinin yüz misli büyük bir düşmanın üstüne atılırlar. " ² (Ömer Seyfettin. Horoz. S.13). Tarjiması: "Eh bechora tovuqlar! Dunyoda bularchalik yoqimli, bulardek sof, ma'sum bir jonzot bormikan... Hayotlari boshdan oxir xizmat va fidokorlikdir. Bizni boqish uchun har kun tuxum qo'yishadi. Jo'ja ochish uchun haftalab qorong'ulikda och, suvsiz, uyqusiz, nursiz holatda tuxumlarini poylab yotishadi. O'z issiqliklari bilan jo'jalar haroratini ta'minlaydilar. Keyin jo'jalari ulg'aygunga qadar nimaiki topsa ilinishadi. Ularni har qanday balodan himoya qilishga harakat qilishadi. Dushmani o'zlaridan ming chandon kuchli bo'lsa-da kurashadilar". Mazkur hikoyada qahramon tovuqlar orqali onalar obrazini ifodalaydi. Onalarning fidokorona mehnatlarini ko'z oldiga keltiradi.

Yana bir örinda "Yavaş yavaş her vakit sebepsiz bir hiddetten köpüren babamı da bu horoza benzetmeye başladım. Onun da tipinde bir horozluk vardı. Gözleri dikti, yuvarlaktı. Kalıpsız kırmızı büyük fesi tıpkı bir ibik gibi duruyordu. Öfkesiyle evi tir tir titretirdi. Annem otuz senelik karısı olduğu halde daha yanında sigara bile içemiyordu. Kardeşlerim, ağabeyim, bahçedeki yavru horozlar gibi ağız açamazlar, ona cevap veremezlerdi. Dikkat ettim, babam horoza benzediği gibi şale tarzında yapılmış evimiz de büyük bir kümese benziyordu. En iyi tünek, yani yukarıdaki

² Ömer Seyfettin. Yüksek ökçeler. Ocak 2006.

balkonlu salon babamın yatak odasıydı. Biz. bütün ev halkı bir sürü tavuk... Nazarında hiç ama hiç ehemmiyetimiz yoktu. Hizmetçileri döver, uşakları kovar, mutfağa karışır, kardeşlerimi azarlar, anneme gık dedirtmez, bana göz açtırmazdı. Evde münhasıran yalnız o vardı. Kümeste horozun olması gibi...”³(Ömer Seyfettin. Horoz. S.15). Tarjiması: “Asta-sekin har soatda qoni ko’pirgan otamni bu xo’rozga o’xshata boshladim. Otamning xarakterida ham xo’rozlik bor edi. Ko’zlari yonib turardi. Qip-qizil bosh kiyimi tojday turardi. G’azabi bilan butun uyni titratadilar. Onam o’ttiz yillik hasmi-haloli bo’la turib yonida erkin yura olmaydi. Ukalarim, akam ham hovlidagi jo’ja xo’rozlar kabi og’iz ochisholmaydi, bir so’z deyishmaydi. Yaxshilab qarasam, dadam xo’rozga o’xshagani kabi uyimiz ham tovuq fermasiga o’xsharkan. Eng yaxshi xona yuqorida dadamning xonasi edi. Uydagilar barchasi fermadagi tovuqlar kabiydik, bizning hech qanday ahamiyatimiz, o’rnimiz yo’q edi. Ishchilarni urar, xizmatkorlarni haydab-solar, oshxona ishlariga aralashar, ukalarimni urishar, onamga “hiq” ettirmas, meni ko’zimni ochtirmasdi. Uyda faqat o’zi bor edi. Fermadagi xo’roz kabi yolg’iz o’ziydi.” Hikoyada mag’rur, o’z nafsı va huzurini o’ylaydigan otalar xo’rozga, nima bo’lganda ham tish-tirnog’igacha sabr qilib yashaydigan onalar tovuqlarga, xizmatchi va farzandlar esa jo’jalarga o’xshatilgan.

Har bir yozuvchining badiiy mahoratini belgilashda uning qahramon portretini yaratishdagi o’ziga xosligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki yozuvchi yaratgan portret adabiy qahramon to’g’risida tasavvur hosil qilish uchun dastlabki tayanch asos sanaladi. Asarda qalamga olinayotgan voqe-hodisalarda kimlar ishtirok etayotgani, ular qanaqa ko’rinish, qiyofa va qanday fe’l-atvorga ega ekanligi, avvalo, ularning portreti orqali namoyon bo’ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, har bir til o’z doirasidagi so’zlarni o’rnida qo’llash, ma’no kengayish usullarini o’rganish, o’ziga xos bo’lgan xususiyatlarini dunyoning tildagi ko’rinishi orqali aks ettirishda muhim rol o’ynaydi. Inson qiyofasi va xarakterini ifodalash har bir tilda ko’rilganda, shu til vakillarining dunyoqarashi, mentalitetidan kelib chiqqan holda beriladi. Shuningdek, tilning qanchalik keng maydonga egaligidan darak beradi.

O’zbek va turk tillarining leksikografik manbalari materiallarini chog’ishtirma tahlil qilish zoonimni idrok etishda umumiy va o’ziga xos xususiyatlarning mavjudligi haqida gapirishga imkon beradi. Umumiy bo’lgan narsa bu – zoonimning ikkala til tizimida mavjudligi, shu jumladan hayvonning biologik xususiyatlari va

³ Ömer Seyfettin. Yüksek ökçeler. Ocak 2006.

zoomorfizm. Har ikki tilda ham odamni salbiy va ijobiy tomondan tavsiflash uchun zoometaforalardan foydalaniladi.

Mazkur tillar tarkibidagi zoonimlarning “xulq-atvori” tahlili bizga quyidagilarni aytishga imkon beradi:

1) Ko’rib chiqilgan zooleksemalar har ikkala tilning matnlarida faol ishlatiladi va turli xil insoniy illatlarning timsoli sifatida xizmat qiladi;

2) Ikkala tilning zoonimlari odamning fe’l-atvorini, holatini, xatti-harakatlarini va xulq-atvorini salbiy ham ijobiy baholash uchun ishlatiladi, bu hayvonot dunyosi vakili idrokining o’ziga xosligi bilan izohlanadi, bunda xuddi shu hayvon o’xshash belgilar bilan tavsiflanadi.

3) Bu tillarda zoonimlar maqol va matallarida ham keng qo’llaniladi.

REFERENCES

1. Güntekin R.N., Çalıkuşu, roman, İstanbul, 1992.
2. Гунтекин Р. Н., Чоликуши, роман, Тошкент, Янги аср авлоди. 2011.
3. Иброҳимова Ш., Одил Ёқубов романларидаги миллийликнинг туркча таржималарда акс этиши, ф.ф.н. дисс.Тошкент, 2010.
4. Ёқубов О., Кўҳна дунё, роман, Тошкент.
5. Yakuboğlu Adil, Köhne Dünya, Türkiye Türkçesi D. Ahsen Batur, İstanbul.
6. Ёқубов О., Улугбек хазинаси, роман, Тошкент, 264-б.
7. Yakuboğlu Adil, Uluğbey’in Hazinesi, Türkiye Türkçesi D. Ahsen Batur, İstanbul.

Lug’atlar

1. Türkçe sözlük. Ankara. 2009
2. TDK Güncel Türkçe sözlük.

Internet saytlari

1. www.trt.net.tr
2. <https://www.haberturk.com>
3. <https://www.pinterest.com/goz>